

**MUTAFAKKIRLARINING ILMIY-IJODIY MEROSIDAN XALQ
TARBIYASI VA AVLODLAR VORISLIGIDA FOYDALANISH**

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti Pedagogika
fakulteti pedagogika yoʻnalishi 2-kurs talabasi*

Tursunova Mohinur Joʻrabek qizi

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti Pedagogika
fakulteti pedagogika yoʻnalishi 2-kurs talabasi*

Hamdamova Intizora Shuhratovna

Annotatsiya Mazkur maqolada mutafakkirlarning ilmiy-ijodiy merosining xalq tarbiyasi va avlodlar vorisligini shakllantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Mutafakkirlarning asarlari va gʻoyalari yosh avlodni tarbiyalashda, milliy qadriyatlar va axloqiy meʼyorlarni oʻrgatishda katta oʻrin tutadi. Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirzo Ulugʻbek, Mahmud Kashgʻariy kabi buyuk mutafakkirlarning asarlari oʻquvchilarga ijtimoiy masʼuliyat, vatanparvarlik va ilmiy tafakkur kabi qadriyatlarni singdirishda samarali vosita hisoblanadi. Maqola shuningdek, mutafakkirlarning ilmiy merosini oʻrganish va uni yoshlar tarbiyasiga tatbiq etish orqali milliy madaniyat va anʼanalarni saqlash, ijtimoiy barqarorlikni taʼminlash va avlodlar oʻrtasida uzviy bogʻliqlikni mustahkamlash mumkinligini koʻrsatadi.

Kalit soʻzlar Mutafakkirlar Ilmiy-ijodiy meros Xalq tarbiyasi Avlodlar vorisligi Alisher Navoiy Zahiriddin Muhammad Bobur Mahmud Kashgʻariy Milliy qadriyatlar Axloqiy meʼyorlar Vatanparvarlik Tarbiyaviy ahamiyati Madaniy meros Zamonaviy tarbiya

Абстрактный В статье анализируется значение научного и творческого наследия мыслителей в воспитании народа и формировании преемственности поколений. Труды и идеи мыслителей играют значительную роль в воспитании подрастающего поколения, обучении его национальным ценностям и нравственным нормам. Труды великих мыслителей, таких как



Алишер Навои, Захириддин Мухаммад Бабур, Мирзо Улугбек и Махмуд Кашгари, являются эффективными инструментами для привития учащимся таких ценностей, как социальная ответственность, патриотизм и научное мышление. В статье также показано, что, изучая научное наследие мыслителей и применяя его в воспитании молодежи, можно сохранить национальную культуру и традиции, обеспечить социальную стабильность, укрепить связь поколений.

Ключевые слова Мыслители Научное и творческое наследие Народное образование Преемственность поколений Алишер Навои Захириддин Мухаммад Бабур Махмуд Кашгари Национальные ценности Моральные нормы Патриотизм Образовательное значение Культурное наследие Современное образование

Abstract This article analyzes the importance of the scientific and creative heritage of thinkers in the education of the people and the formation of the succession of generations. The works and ideas of thinkers play a significant role in educating the younger generation, teaching national values and moral standards. The works of such great thinkers as Alisher Navoi, Zahiriddin Muhammad Babur, Mirzo Ulugbek, Mahmud Kashgari are an effective tool for instilling in students values such as social responsibility, patriotism and scientific thinking. The article also shows that by studying the scientific heritage of thinkers and applying it to the education of young people, it is possible to preserve national culture and traditions, ensure social stability and strengthen the ties between generations.

Keywords Thinkers Scientific and creative heritage Public education Succession of generations Alisher Navoi Zahiriddin Muhammad Babur Mahmud Kashgari National values Moral norms Patriotism Educational significance Cultural heritage Modern education

Kirish

Har bir millat o'z tarixi va madaniyatini mustahkamlashda ulug' mutafakkirlarining ilmiy-ijodiy merosidan foydalanishga alohida e'tibor beradi. Bu meros nafaqat xalqning ma'naviy qadr-qimmatlarini saqlash, balki uning tarbiyasi,



axloqiy me'yorlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Zotan, mutafakkirlarning asarlari, fikrlari va qarashlari avloddan-avlodga o'tar ekan, jamiyatning ijtimoiy-axloqiy rivojlanishida yuksak rol o'ynaydi.

Xalq pedagogikasi asrlar davomida avlod-ajdodlarimizning axloqiy, ma'rifiy shakllanishi va kamolotida muhim o'rin tutgan. Chunonchi, xalq o'zining ma'naviy-ma'rifiy, badiiy-estetik qarashlari, falsafiyaxloqiy tushunchalari, hayotiy, ta'lim-tarbiyaviy xulosalarini xalq pedagogikasida aks ettirgan. Xalq pedagogikasining muhim yo'nalishi milliy tarbiyani amalga oshirishdir, muhim xususiyatlaridan biri esa millatga xos bo'lgan xususiyatlarning saqlanishini ta'minlash sanaladi. Shuni qayd etish kerakki, xalq pedagogikasidagi pedagogik qarashlar, allomalarimiz tomonidan ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va o'qituvchining insoniy fazilatlari va kasbiy tayyorgarligi xaqidagi bildirilgan fikrlar hozirgi kunda ham o'z qimmatini yo'qotmagan. Insoniyat jamiyatining barcha bosqichlarida barkamol shaxsni voyaga yetkazish dolzarb muammolardan biri bo'lib kelgan. Xalqimiz pedagogik qarashlarining tahlili bu borada juda boy ma'naviy - ma'rifiy meros mavjudligini ko'rsatadi. Demak, bo'lg'usi pedagogik kadrlarni xalqimizning ta'lim-tarbiya nazariyasi va amaliyoti bo'yicha to'plagan boy ma'naviy-ma'rifiy meros va pedagogik qarashlari bilan tanishtirish ulaming kasbiy-pedagogik tayyorgarligini orttirishga zamin tayyorlaydi. Xalq pedagogikasining asosiy tadqiqot ob'ekti xalqimizning axloqiy, ta'lim-tarbiyaviy qarashlari bo'yicha to'plangan boy ma'naviy-ma'rifiy meros va pedagogik g'oyalari bilan tanishtirish jarayoni sanaladi. Mazkur jarayonda quyidagilar o'rganiladi: -xalqimizning ma'naviy-ma'rifiy va milliy qadriyatlari; -oilada farzand tarbiyasi, tarbiya metodlari, usul va vositalari; -o'zbek xalqining axloqiy me'yorlari, muomala madaniyati; -xalq pedagogikasida tabiat va inson munosabatlari, sogiom turmush tarzining aks etishi; - buyuk mutafakkirlarning pedagogik g'oyalari; - xalq og'zaki ijodi va dostonlarning tarbiyaviy ahamiyati; [-milliy urf-odatlar](#), marosimlar, an'analar, udumlar, xalq o'yinlari va o'yinchoqlarining tarbiya vositasi sifatidagi o'mi; -xalq pedagogikasida diniy ta'limotlar; -xalq pedagogikasida xalq amaliy san'ati, hunarmandchiligi va h. Xalq pedagogikasi fanining asosiy maqsadi - bo'lg'usi pedagogik kadrlarda pedagogik tafakkumi



shakllantirish va kengaytirish, xalqimizning o'qitish jarayonini tashkil etish va tarbiya nazariyasi bo'yicha to'plangan boy ma'naviy-ma'rifiy merosi va pedagogik qarashlari, ta'limiy-tarbiyaviy imkoniyatlari bilan tanishtirish orqali ularning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini o'rttirishdir. Fanning vazifalari - xalq pedagogikasining ta'lim-tarbiyaga oid boy tajribasi, tarbiya usullari, insoniy fazilatlar va qadriyatlar, xalq pedagogikasining sharqona va turkona an'analari, ta'lim-tarbiya jarayonlarining xalq og'zaki ijodida, milliy urf-odatlarida, diniy ta'limotlarda ifodalanish masalalarini o'rganish hamda kelajak avlodga uning mazmun-mohiyatini tushuntirishdan iborat. O'zbek xalqining o'tmishdagi tarixiy tajribasi, ma'naviy, madaniy, ijtimoiy hayoti, oilada farzand tarbiyasi bilan bog'liq masalalarni ilmiy jihatdan to'la bilish uning kelajakdagi taraqqiyot yo'lini aniq belgilab beradi. Zero, o'z elining murakkab tarixini, etnik xususiyatlari va pedagogik g'oyalarini aniq bilish ma'naviy barkamollikni ta'minlovchi bir omildir.

Mutafakkirlarning Ilmiy-Ijodiy Merosi va Uning Ahamiyati

Mutafakkirlar ilmiy-ijodiy merosi jamiyatni rivojlantirishda asosiy omil bo'lib, ular o'z asarlarida milliy qadriyatlar, axloqiy tamoyillar, ijtimoiy mas'uliyat, adolat, tenglik kabi g'oyalarni ilgari suradilar. Masalan, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Mahmud Kashg'ariy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk mutafakkirlarning asarlari nafaqat o'z davrining, balki hozirgi kunda ham o'quvchilarni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Alisher Navoiy, o'z asarlarida insoniy qadriyatlar, adolat, samimiylik va vatanparvarlik kabi tushunchalarni keng yoritgan. U, shuningdek, insonni yuqori axloqiy me'yorlar bilan tarbiyalashning ahamiyatiga alohida e'tibor qaratgan. Uning «Xamsa» asari – o'rta asrlarning eng yuksak adabiy yodgorliklaridan biri bo'lib, unda insonning ahloqiy va ma'naviy tarbiyasiga oid ko'plab fikrlar mavjud.

Zahiriddin Muhammad Bobur esa, o'zining "Boburnoma" asarida tarix, siyosat, falsafa va axloqiy qadriyatlarni muhim deb hisoblagan. Bobur o'z xalqini, madaniyatini, tarixini sevgan va shu g'oyalarga asoslanib, o'z asarlarini yaratgan. Ushbu asarlar Kelajak avlod uchun mustahkam poydevor bo'la oladi. Chunki yosh



avlodni vatanpar ma'rifatparvar komil inson qilib tarbiyalashimiz uchun ushbu asarlarning o'rni beqiyosdir.

Shu o'rinda Prezidentimiz ham bu masalada o'zlarining fikrlarini bildirib o'tganlar "Bolalarimizni birovlarining qo'lga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim. Buning uchun yoshlarimiz bilan ko'proq gaplashish, ularning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muammolarini yechish uchun amaliy ko'mak berishimiz kerak. Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz".

Xalq Tarbiyasida Mutafakkirlar Merosidan Foydalanish

Xalq tarbiyasi – bu milliy qadriyatlar, an'analar, odatlar va axloqiy me'yorlar asosida o'quvchilarni shakllantirish jarayonidir. Bu jarayonda mutafakkirlarning ilmiy-ijodiy merosidan foydalanish, yosh avlodni ulug' insoniyat qadriyatlariga yo'naltirishda samarali vosita bo'ladi. Xalq tarbiyasini shakllantirishda quyidagi mutafakkirlar merosidan foydalanish imkoniyatlari mavjud:

Alisher Navoiy o'zining asarlarida insoniyatni har tomonlama rivojlantirishni, ijtimoiy mas'uliyatni, vatanparvarlikni targ'ib qildi. Tarixiy va falsafiy asarlari orqali u yoshlarni mustahkam axloqiy pozitsiyalarda tarbiyalashga chaqirdi. Uning asarlarida millatning ma'naviy va axloqiy rivojlanishi uchun zarur bo'lgan qadriyatlar yoritilgan. Hozirgi kunda Navoiyning fikrlarini o'rganish, yosh avlodni ma'naviy va axloqiy jihatdan yetuk qilib tarbiyalashda yordam beradi.

Abu Rayhon Beruniy insoniyat tarixida birinchilardan bo'lib bolalarni kichik yoshidan mehnat qilishga o'rgata borish, kattalar mehnatini e'zozlaydigan qilib tarbiyalash, bolani ilm va kasbga o'rgatish oilaning diqqat markazida bo'lishi kerakligi haqida fikr bildirgan. Alloma oilada boshlangan mehnat tarbiyasini maktabda ta'lim bilan birga hunar o'rgatishga bog'lab davom ettirish lozimligini alohida ta'kidlagan.

Mirzo Ulug'bek ilm-fan va madaniyatni rivojlantirish borasida buyuk ishlarga imzo chekkan. Uning asarlarida ilmiy tafakkur, astronomiya va matematikaga bo'lgan qiziqish, ayniqsa yoshlar tarbiyasida muhimdir. Ulug'bekning ilmiy yondashuvini o'rganish yoshlarni mantiqiy fikrlash va ilmiy izlanishlarga undaydi. O'quvchilarda ilmiy-ijodiy yondashuvni rivojlantirish uchun uning merosidan foydalanish mumkin.



Mahmud Qoshg'ariy "Devoni lug'atit turk" asarida —Ilmli, aqlli odamlarga yaxshilik qilib so'zlarini tingla. Ilmlarni, hunarlarni o'rganib, amalga oshir, deydi. Allomaning ushbu fikri kishilarni mehnat qilishga, yaxshilikka undaydi, yomonlikni qoralaydi. Ilm va hunar sohiblarini e'zozlab, kishilarni ulardan ibrat olishga chaqiradil

. Sohibqiron Amir Temur o'z saltanatida yirik mehnat taqsimoti negizida mustaqil soha bo'lib ajralib chiqqan hunarmandchilik – to'qimachilik, yog'och va tosh o'ymakorligi, gilam to'qish, sopol, metall buyumlar tayyorlash kabi sohalarni yanada rivojlantirishga hamda dehqonchilik, chorvachilik va savdoga katta ahamiyat qaratgan. Shu sababli ijtimoiy hayotda yangidan-yangi kasb-hunarlarining paydo bo'lishiga imkoniyat yaratilgan, ommaviy ishsizlikka yo'l qo'yilmagan

Yuqorida keltirib o'tilgan bobokalonlarimiz xalqning ma'naviy barkamolikka erishishiga ularning ruhan sog'lom bulishiga ko'maklashadi. Shuningdek bobokalonlarimiz yoshlarning yoshligidanoq kasbga yo'naltirish ularning qiziqishlaridan kelib chiqib tanlah kerak ekanligini guvohi bo'lamiz. Shunday ekan maktablarda ham yosh avlod o'quvchlariga ko'makchi ular tug'ri yo'l tanlashlariga yordam berishimiz lozim.

Xulosa

Mutafakkirlarning ilmiy-ijodiy merosi xalq tarbiyasi va avlodlar vorisligini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ularning asarlari, g'oyalari va axloqiy o'g'itlari yoshlarni ma'naviy yetuk, mas'uliyatli va vatanparvar shaxslar sifatida tarbiyalashda keng qo'llanilishi lozim. O'zbek mutafakkirlarining ilmiy-ijodiy merosini o'rganish va uni yoshlar tarbiyasiga tatbiq etish orqali avlodlar orasidagi madaniy va axloqiy bog'lanishni mustahkamlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xasanov, R. (2018). Milliy qadriyatlar va mutafakkirlar merosi. Tashkent: National Publishing House.
2. Bobur, Z. M. (2020). Boburnoma. Tashkent: Fan.
3. Navoiy, A. (2017). Xamsa. Tashkent: Akademnashr.
4. Mirzo Ulug'bek. (2015). Astronomiya va ilmiy meros. Tashkent: TDPU.



5. Haydarov A. Inson kamoloti va milliy-ma'naviy qadriyatlar. T.: Muharrir, 2008 y
6. Xusniddin, Milinorov, and Mavlonova Malika. "Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-pedagogik tayyorlash jarayonida kommunikativ kompetentsiyalarini rivojlantirish metodikasi." *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi* 7 (2024): 296-304.
7. Xushmatovich, Milinorov Xusniddin. "Pedagogik faoliyat jarayonida bo 'lajak pedagoglarni raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish." *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi* 7 (2024): 305-312.
8. Милиноров, Хусниддин Хушматович, and П. М. Жалолова. "ПРОЦЕСС ОРГАНИЗАЦИИ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ В ВЫСШЕЙ ШКОЛЕ." *Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies*. Vol. 3. No. 5. 2024.
9. Anatolyevna, Boyarkina Yulia, Sokhibov Akram Rustamovich, and Milinorov Khusniddin Khushmatovich. "EDUCATIONAL TOURISM AS A POTENTIAL FOR THE DEVELOPMENT OF THE REGION." *Web of Teachers: Inderscience Research* 2.6 (2024): 185-189.
10. Milinorov, XX va DN Eshmuratova. "O'ZBEK URNAVALARI, MAROSIMLARI VA ODAMLARINI SHAXS TARBIYO'TIDAGI O'RNI". *Web of Teachers: Inderscience Research* 2.5 (2024): 205-209.
11. Djamalov A. Raqamli pedagogika asoslari. – Toshkent: "Innovatsiya", 2023
12. .Khamraeva, M. (2019). Tarbiya fani va uning o'quvchilarga ta'siri. *Journal of Pedagogical Sciences*, 45(2), 30-35.